

## **“TALABALARNING IJODIY TAFAKKURINI RIVOJLANTIRISH” MAVZUSINING O‘RGANILISHI**

**Maxsudjonova Aziza Qadambayevna**

Toshkent to‘qimachilik va yengil sanoat instituti katta o‘qituvchisi

### **ANNOTATSIYA**

*Maqolada “Talabalarning ijodiy tafakkurini rivojlantirish” mavzusi xorijiy ekspertlar asarlari orqali ilmiy jihatdan komparativistik asosda o‘rganildi. Bugungu kunda talabalarning ijodiy tafakkurini rivojlantirish masalasi eng dolzarb muammolardan biridir.*

**Kalit so‘zlar:** *innovatsion jarayonlar, aksiologik salohiyat, o‘z-o‘zini anglash, ob‘ekt, sub‘ekt, tadqiqot tahlili, kasbiy pedagogic madaniyat, metodologiya.*

### **АННОТАЦИЯ**

*В статье изучено темы «Развитие творческого мышления студентов» на компаративистической основе посредством работ зарубежных специалистов. Сегодня вопрос развития творческого мышления студентов является одной из наиболее актуальных проблем.*

**Ключевые слова:** *инновационные процессы, аксиологический потенциал, самосознание, объект, субъект, исследовательский анализ, профессиональная педагогическая культура, методология.*

### **ABSTRACT**

*The article studies the topic of «Development of students’ creative thinking» on a comparative basis through the works of foreign experts. Today, the issue of developing students’ creative thinking is one of the most pressing problems.*

**Keywords:** *innovative processes, axiological potential, self-awareness, object, subject, research analysis, professional pedagogical culture, methodology.*

### **KIRISH**

Dunyoda amalga oshirilayotgan demokratik o‘zgarishlar jamiyat hayotining barcha jabhalarida tub o‘zgarishlarga olib keldi, jamoatchilik va shaxsiy ongga ta’sir ko‘rsatdi. Bularning barchasi o‘qituvchilarda o‘quv jarayonini takomillashtirish, uni faollashtirish, o‘qitish usullarini, ilmiy dunyoqarash va ijodiy tafakkurni rivojlantirishga qaratilgan pedagogik vositalar majmuasini yanada kengroq joriy etishga intilishlarini uyg‘otishi zarur. Busiz ilmiy bilimlarni chuqur o‘zlashtirib bo‘lmaydi yoki undan amaliyotda mustaqil foydalanish qobiliyatini rivojlantirib bo‘lmaydi. Bilim ongli ijtimoiy ijodkorlik qobiliyati bilan «urug‘langan» bo‘lishi lozim. Ta’lim samarali ijtimoiy hayotga qodir shaxsni shakllantirishi zarur.

Jahonda o'qitish amaliyotida o'quvchilarning dunyoqarashini shakllantirish jarayonida yuzaga keladigan bir qator ob'ektiv qiyinchiliklar mavjud. Ulardan biri ko'pchilik o'qituvchilarning ilmiy dunyoqarashning yaxlit tuzilishiga mos ravishda talabalar dunyoqarashini shakllantirish ustida ishlashga tayyor emasligi. Bundan tashqari, zamonaviy ijtimoiy hayotning iqtisodiy voqeliklari shundayki, ular umuminsoniy qadriyatlardan yiroq dunyoqarashning asosini tashkil etuvchi, o'qituvchi va talaba o'rtasida begonalashuvni yuzaga keltiradigan ta'lim-tarbiya muhitini yaratadi, buning natijasida tuzilma va zamonaviy ta'limda o'quv jarayonining mazmuni talabalarning dunyoqarashini shakllantirish vazifalariga zid keladi.

Hozirda oliy ta'lim tizimida raqobatbardosh kadrlar tayyorlash uchun ularning kasbiy mahoratlarini oshirish borish, zamonaviy bilim, ko'nikma va malakaga ega bo'lish kerak. Yangi axborot texnologiya va dasturiy vositalarni samarali qo'llash, o'z mutaxassisligi bo'yicha kasbiy faoliyatini chuqur egalash zarur, soxaga doir so'ngi yutuq va yangiliklardan habardor bo'lishga esa xorijiy tilni o'rganish, davr talabiga aylandi.

E'tirof etilganidek, yoshlarni har tomonlama barkamol qilib tarbiyalash O'zbekiston Respublikasi davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biridir. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoev ta'kidlaganidek, "yuksak ma'naviyatli, mustaqil fikrlaydigan, zamonaviy bilim va kasb-hunarlarini puxta egallagan yoshlarni tarbiyalash, ularda milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat hissini yuksaltirish, farzandlarimizning qalbi va ongida mafkuraviy immunitetni shakllantirishdan iborat" [1].

Fan, ta'lim va ishlab chiqarishning mustahkam integratsiyasini ta'minlash orqali, o'qitishning zamonaviy vositalaridan foydalangan holda ta'lim sifatini yaxshilash, talaba yoshlarda mustaqil fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish va rivojlantirishga katta yordam beradi. Xususan, zamonaviy ilm-fan va axborot-kommunikatsiyaning so'nggi yutuqlariga tayanish, yirik moliyaviy mablag'lar va yuksak kasbiy mahoratga ega mutaxassislarning mavjudligi, bu boradagi yutuqlarni kafolatlaydi.

Mavzuga oid ilmiy tadqiqotlardan texnika oliy o'quv yurtida muhandis-o'qituvchini pedagogik tayyorlash jarayonida pedagogik o'z-o'zini anglashni rivojlantirish imkoniyatini aniqlash borasida tadqiqotlar tahlili shuni ko'rsatdiki, ilmiy adabiyotlarda kasbiy pedagogik madaniyat va uning o'zagi – pedagogik o'z-o'zini anglash zarurligi I.B.Bachkov [2, 180 b.], texnik universitetda muhandis-o'qituvchi shaxsini shakllantirish xususiyatlarini B.F.Bessarab [3, 140 b.], muhandis-pedagoglarning uslubiy tayyorgarligi B.P.Kosirev [4, 144 b.], kasbiy pedagogik

ta'limning mazmuni P.F.Kubrushko [5, 236 b.], o'qituvchi va ishlab chiqarish ta'limi ustasi shaxsiyatining professionalligi N.V.Kuzmina [6, 117 b.], universitet o'qituvchilarining oliy ta'limga o'tish jarayonida kasbiy mahoratini oshirishning pedagogik shartlari I.I.Semenova [7, 204 b.] tomonidan o'rganilgan.

Ixtisoslashgan oliy o'quv yurtlari o'qituvchilari orasida uning rivojlanishidagi qiyinchiliklar muhandis-pedagogik kadrlarning texnokratik tafakkuri bilan izohlanadi. Maorif sohasidagi innovatsion jarayonlarning kechishiga oid turli xil muammolarni ilmiy jihatdan tadqiq qilishga korxonalar va oliy o'quv yurtlarini ilmiy yo'nalishdagi hamkorligi masalalari N.L. Zaysev [8, 455 b.], ilmni boshqarishni AQSh tajribasini o'rgangan M.M.Ivanov [9, 23-b.], Yaponiyani oliy ta'lim tizimini boshqarish muammolarini N.P.Dronishines [10, 70-79-bb.], inson resurslarini boshqarish bo'yicha I.K.Makarova [11, 232 b.], oliy ta'lim tizimida mutaxassis kadrlarni tayyorlash sifati va bu jarayonni boshqarish M.I.Irodov [12, 90-95-bb.], Oliy ta'lim tizimida boshqaruv qarorlarini qabul qilishning Rossiya tajribasini o'rgangan A.Panova [13, 94-105-bb.] va boshqalar o'z hissalarini qo'shganlar.

Bugungi kunda pedagogik o'z-o'zini anglashni rivojlantirishning ilmiy asoslangan jarayoni, uning darajasini farqlash va ilmiy-metodik ta'minlash masalalari qisman o'rganilgan. Ushbu muammoni hal qilish imkoniyati muhandis-o'qituvchining o'zini o'zi bilish, o'z-o'zini baholash va o'z-o'zini tartibga solishni ilmiy asoslangan tashkil etish orqali pedagogik o'z-o'zini anglashni rivojlantirish bilan bog'liq bo'lib, bu o'z-o'zini rivojlantirishga yordam beradi. Muhandis-o'qituvchining o'z ishining natijalari uchun javobgarligi, o'z-o'zini takomillashtirish vektorini tanlash uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish masalalarini yoritish zarur.

Texnika oliy o'quv yurtlari professor-o'qituvchilarini pedagogik tayyorlash jarayonida pedagogik o'z-o'zini anglashni samarali rivojlantirish muammosini hal qilish uchun zarur ilmiy shartlar paydo bo'ldi. Ixtisoslashtirilgan oliy o'quv yurti o'qituvchilari malakasini oshirish tizimi, kasbiy o'zini o'zi anglash komponentlarini rivojlantirishning nazariy jihatlari, jumladan, bo'lajak o'qituvchining kasbiy o'zini o'zi anglashini shakllantirishning psixologik shartlari - S.B.Vaskovskaya [14, 17 b.], kasbiy ta'lim nazariyasining asosiy qoidalari, o'z taqdirini o'zi belgilash muammolari P.A.Litvak [16, 45 b.], professional o'qituvchining o'z taqdirini o'zi belgilashning nazariy asoslari E.R.Saitboyeva [17, 203 b.] tomonidan o'rganilgan.

## **XULOSA**

Tadqiqotimizda shaxsning kasbiy va ijodiy yo'nalishini shakllantirish, uning quyi tuzilmalaridan biri sifatida birinchi marta texnik institut talabalariga nisbatan kompleks tarzda ko'rib chiqiladi. Bu, ayniqsa, muhim ahamiyatga ega, chunki kasbda shaxsning ijodiy o'zini o'zi anglashi uchun shart-sharoitlarni yaratish, o'rganish,

talaba, bo'lajak sanoat texnologiyasi muhandisi shaxsiyatining kasbiy va ijodiy yo'nalishini shakllantirish maqsadiga aylanadi.

### **ADABIYOTLAR**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. // Xalq so'zi gazetasi, 28-dekabr, 2018 yil.
2. Вачков И.В. Психологические условия развития профессионального самосознания учителя: на материале спец. тренинговых групп: дис.канд.психол. наук: 19.00.07 / И.В. Вачков. - М., 1995.- 180 с.
3. Бессараб В.Ф. Особенности формирования личности инженера-педагога в техническом ВУЗе / В.Ф. Бессараб Г.Н. Неустроев; под общ. ред. С.Е. Матушкина. Челябинск: Ю. - Уралск, науч. - образ, центр РАО, 2000. - 140 с.
4. Косырев В.П. Методическая подготовка инженеров-педагогов / В.П. Косырев. М.: Изд-во МГАУ, 1998. - 144 с.
5. Кубрушко П.Ф. Содержание профессионально-педагогического образования / П.Ф. Кубрушко. М.: Высш. шк., 2001. - 236 с.
6. Кузмина Н.В. Профессионализм личности преподавателя и мастера производственного обучения / Н.В. Кузмина. М.: Высш. шк., 1990. - 117 с.
7. Семенова И.И. Педагогические условия повышения профессионального мастерства преподавателя ВУЗа в процессе перехода к университетскому образованию: дис.канд. пед. наук: 13.00.08 / И.И. Семенова. Ростов на Дону, 2001. - 204 с.
8. Зайцев Н.Л. Экономика, организация и управление предприятием: Учеб.пособие. - 2-е изд. - Москва: ИНФРА - Москва, 2008. - 455 с
9. Иванов М.М., Колупаева СР., Кочетков Г.Б. США: управление наукой и нововведениями. - Москва: Наука, 1999. - С. 23.
10. Дронишинец Н.П. Проблемы управления системой высшего образования в Японии // Университетское управление. - 2002. – Ч. 1. - С. 70-79.
11. Макарова И.К. Управление человеческими ресурсами: пять уроков эффективного HR - менеджмента. - Москва: Дело, 2007. - 232 с.
12. Иродов М.И., Разумов СВ. Создание системы управления качеством подготовки специалистов в ВУЗе // Университетское управление. - 2003. - 2. - С. 90-95.
13. Панова А. О структуре управления и принятии решений в Российских ВУЗах // Вопросы экономики. - 2007. - 6. - С. 94-105.
14. Васковская С.В. Психологические условия формирования профессионального самосознания будущего учителя: автореф. дис.канд. психол. наук: 19.00.07 / С.В. Васковская; НИИ психологии УССР. Киев, 1987. - 17 с.

15. Маркова А.К. Психология труда учителя / А.К.Маркова. - М.: Просвещение, 1993. 192 с.
16. Литвак Р.А. Педагогические основы деятельности детских общественных объединений в современных условиях: дис.д-ра пед. наук; 13. 00. 01 / Р.А.Литвак; Урал. гос. проф.-пед. унт. Екатеринбург, 1997. - 45 с.
17. Саитбаева, Э.Р. Теоретические основы самоопределения педагога - профессионала: монография / Э.Р. Саитбаева. М.: Прометей, 2000. - 203 с.